Isabekov Shuxratjon Muhammadjonovich
Namangan davlat universiteti dotsenti
E-mail: shuxrat77@gmail.com

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR JISMONIY TARBIYASINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10377257

Anotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasining pedagogik va psixologik asoslari *xaqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, bolalar jismoniy tarbiyasini tashkil qilishda milliy harakatli o'yinlarning ahamiyati ham o'rganilgan.*

Kalit so'z: ta'lim, tarbiya, me'yor, jismoniy mashiqlar.

Tarbiya doimo jamiyat uchun muhim vazifani bajargan, turli avlodlar o'rtasidagi aloqa va vorislikni amalga oshirib kelgan. Tarbiyaning o'z maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli va usullari davrlar osha o'zgarib borgan. Bu o'zgarishlar kishilar o'rtasidagi munosabatlar bilan chambarchas bog'liq. Shundan kelib chiqib, tarbiyada Vatan himoyasiga tayyor, mehnat, ijtimoiy faoliyat, umuman, hayotda har tomonlama rivojlangan komil insonni tarkib toptirishga e'tibor berish kerak. Jismoniy tarbiya jarayonida bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun tarbiyaning bir - biri bilan o'zaro bog'langan har birining mazmuni, vositalari, shakl va usullarining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish kerak bo'ladi. Ilmiy tadqiqot ob'ektimiz milliy harakatli o'yinlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashda ham ana shu o'ziga xosliklarni hisobga olish zarurligi ko'rindi. Pedagogikada qabul qilingan yosh davrlaridan biz uchun eng muhimi kichik maktab yoshidir. Har bir yosh guruhiga jismoniy va ruhiy rivojlanishning muayyan darajasi mos keladi.

Kichik maktab yoshida o'qish bolaning butun hayot tarzini o'zgartiradi va unga yangi talablar qo'yadi. Chunki bog'cha yoshida bolalarda, asosan nutqining rivojlanishiga, axloq me'yorlarining shakllanishiga asosiy e'tibor beriladi. Ularni tarbiyalashda maxsus tashkil etiladigan o'yin faoliyati katta o'rin tutadi. Bolaning rivojlanishi uchun didaktik ta'lim beruvchi va jamoa bo'lib birgalikda harakat qilishga o'rgatuvchi o'yinlardan foydalaniladi. Kichik maktab yoshida organizmning umumiy etilishi fonida bolalarning harakat sohasi jadal rivojlanadi. Bu davr jismoniy tarbiya bilan faol shug'ullanish uchun juda qulaydir.

Mana shu jihatdan bolaning aynan shu xususiyatlarini rivojlantiruvchi milliy xalq harakatli o'yinlaridan foydalanish tarbiyada ko'zlagan maqsadga yetish imkonini tezlashtiradi. Jismoniy rivojlanishning jadalligi skletning tez o'sishi, umurtqa pog'onasi bukikligining shakllanishi, yurak, tomir tizimining rivojlanish xususiyatlari va boshqalar bolaning oqilona tashkil etilgan va butun hayot rejimini talab etadi. Turli yoshdagi har xil jinsdagi bolalar ruhiyatining rivojlanishi, o'zgarishlari, ularning axloqiy va jismoniy kamol topishiga ijobiy ta'sir qiladigan omillar, shart-sharoitlarni bilish, ulardan unumli foydalanish hozirgi kunda o'qituvchilar, jismoniy tarbiya mutaxassislari uchun nihoyatda zarur bo'lib qoldi.

Har bir o'quvchi yosh davrining ruhiy xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya darslarini olib borish orqali ular ongiga, ruhiga ta'sir o'tkazish o'z vaqtida o'z-o'zini anglashni vujudga keltiradi. Bolada o'zini anglash tuyg'usi qancha erta uyg'onsa, shaxsiy nuqtai nazar, huquqini his etish, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo'ladi.

Boladagi e'tiqod, muomala, muloqot, mustaqil xulq-atvorni shakllantirish, ulardagi tashabbuskorlik hamda to'siqlarni yengishga intilish kabi xususiyatlarni jismoniy tarbiyada milliy xalq harakatli o'yinlari orqali ham tarbiyalash mumkin, bunda ularga

yosh psixologiyasi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ruhiy turtki berish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbek xalq milliy harakatli o‘yinlarining bolalarni ruhiy jihatdan kamol toptirishda ahamiyati ulkan. Umuman, o‘yinlarning ahamiyati haqida ko‘pchilik ruhshunoslar va pedagoglar qimmatli fikrlarni aytib ta'kidlab o‘tishgani ma'lum. Eng sodda ruhiy jarayondan eng murakkabigacha hammasining muhim jihatlarini shakllantirishda o‘yin katta rol o‘ynashini jahon pedagog va psixologlari ham turli davrlarda turlicha yo‘llar bilan isbotlab berishgan.

O‘yin bolalar uchun voqelikni aks ettirish vositasidir. Bu voqelik bolani qurshab turgan borliqdan ancha qiziqarlidir. O‘yinning qiziqarliligi uni anglab etishning osonligidadir. Kattalar hayotida faoliyat, xizmat qanday ahamiyatga ega bo‘lsa, bola hayotida ham o‘yin xuddi shunday katta ahamiyat kasb etishi mumkin.

O‘yin mazmunining rivojlanishi bolaning kattalar hayoti va faoliyatining mohiyatiga chuqurroq kirib borishida, atrofdagi voqea-qodisalarga munosabatining o‘zgarishida, shuningdek, o‘yin mazmuni ham shart-sharoit va jamiyat a'zolari turmushining tobora to‘g‘ri aks etishida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun bolalarda o‘yin qobiliyatining o‘sishi o‘z-o‘zicha yuzaga kelmaydi, balki kattalar, tarbiyachilarning ta'siri natijasi, atrof-muhit bilan tanishish, sayrlar uyushtirish, shaxslararo munosabatlarning mohiyatini tushuntirish va hokazolar natijasida amalga oshadi.

Katta kishilar hayoti va faoliyatining o‘rnini bosuvchi narsalar ularning harakatini umumlashgan holda ifodalashning moddiy tayanchi hisoblanadi. Shunday ekan, o‘yin faoliyatida bola harakatining rivojlanishi o‘yin mazmuniga ko‘proq bog‘liqdir. Chunki bolaning hatti-harakati qanchalik ixcham va umumlashgan bo‘lsa, ular kattalarning faoliyati mazmunini aks ettirishdan shunchalik yiroqlashadi. Binobarin, u odamning narsalarga va bir-birlariga munosabatini amalda bajarishga o‘tadi va shuning uchun narsalar bilan harakat qilishda kattalarning munosabatini to‘g‘ri ifodalashga intiladi.

Har qanday o‘yinning va o‘yin faoliyatining diqqat markazida bola kattalar faoliyati va o‘zaro munosabatini, muomalasini o‘ziga xos tarzda aks ettirishi, takrorlashi imkoniyati turadi. Shunga ko‘ra o‘yin ijtimoiy ahamiyat kasb etib, bolada insoniyat tomonidan asrlar davomida yaratilgan qimmatli bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va odatlarni, xalqning ijodiy boyligini o‘rganishiga imkon yaratiladi, oqibatda uni shaxslar aro muloqotning mohiyatiga olib kiradi.

Bolalarda harakatning o‘sishida o‘yinning ta'siri haqida gap borganida avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o‘yin tashkil qilishning o‘ziyoq bolaning harakterini o‘stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Ikkinchidan, o‘yinning bola harakatiga ta'sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko‘nikmalarini sub'ekt aynan o‘yin paytida emas, balki bevosita mashg‘ulotlar orqali o‘zlashtiradi. O‘yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitni vujudga keltiradi. Shu boisdan o‘yin faoliyati hatti-harakatini amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta'minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi. Negaki, o‘yin sub'ekt (bola) ongining dastlabki ob'ekti darajasigacha o‘sib o‘tadi. Bola muayyan xususiyatga ega bo‘lgan o‘yinni tanlaydi, shu bilan birga u yoki bu o‘yin orqali kattalarga xos qat'iy yurish-turishni ongli ravishda ijro etishga intiladi, shunday ekan, o‘yin mazkur bola uchun eng zarur faoliyatga aylana boradi va yangi shakldagi harakatlarni takomillashtirish, ularni anglagan holda esga tutish ehqtimoli yaqqol ko‘rina boshlaydi. Mazkur harakatlarni egallash bolada jismoniy mashqlar, xalq harakatli o‘yinlarini ongli ravishda bajarish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Bolaning o‘yinlar shart-sharoitidan kelib chiquvchi ongli maqsadi harakatni bajarish kezida o‘z ifodasini topadi va uning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi esda olib qolish, esda

tutish jarayoniga aylanadi.

O‘yin va o‘yin faoliyati bolada o‘z xulqini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaning aqliy o‘sishi bilan bog‘liq holda narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqib, sub'ekt o‘yin paytida faol harakat qilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan jismlar mohiyatini aks ettiruvchi harakat rejasiga o‘tadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga xayoliy ko‘rinishiga o‘tishida unga tayanch nuqtasi bo‘lishi kerak, vaholanki, shunday tayanch nuqtasi vazifasini o‘tovchi narsalarning aksariyatidan o‘yinlarda bevosita ob'ekt sifatida foydalanish mumkin.

O‘yin harakatlarining qisqarishi va umumlashuvi ularning aqliy ko‘rinishidagi mantiqan izchil, shaklga o‘tishning asosini tashkil qiladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berib, shunday degan edi: "... yosh avlodni tarbiyalash biz uchun eng asosiy vazifadir". Shundan kelib chiqib, hozirgi vaqtda O‘zbekiston pedagogika jamiyati tarbiyaning noodatiy bo‘lgan shakl va usullarini izlab topish, o‘sib borayotgan avlodda mustaqkam umuminsoniy ishonch, qarashni shakllantirish; shaxsda milliy madaniyat va qadriyatlarni hurmat qilish, avaylab asrash tuyg‘ularini o‘stirishga diqqatni qharatmog‘imiz lozim. Shu fikrlarga asoslanib, o‘sib borayotgan avlodning tarbiya tizimida xalq pedagogikasi tajribalari, jumladan, milliy harakatli o‘yinlar yoshlarning harakteri va ongini boshqaruvchi vosita, asosiy kuch deb hisoblash mumkin.

Bolani o‘yinga undagan omil uning katta yoshdagi odamlarning borliq to‘g‘risidagi va shaxslararo munosabati haqidagi tasavvuri va ularni shaxsiy faoliyatida sinab ko‘rish istagi, shuningdek, jamoa bo‘lib o‘ynayotgan tengqurlari bilan bevosita muloqotga kirishish ishtiyoqidir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: a) o‘yin faoliyatida bola turli harakatlarni to‘laligicha namoyish etishga, ularni bajarish usullarini ko‘rsatishga ishtiyoqmand bo‘ladi; b) keyinchalik esa barcha xatti-harakatlarni umumlashtirib aks ettirishga urinadi.

Haqiqatan ham bolani o‘yinlar bilan mashg‘ul qilib, buyuk ishlarga tayyorlash mumkin. O‘yin bolalar uchun ermak emas, balki ularning kuch va qobiliyatini o‘stirishga yordam beradigan muhim vositadir.

Go‘daklik davridan maktabgacha yoshga o‘tgan bolaning faoliyati kattalar rahbarligidagi faoliyatdan mustaqil o‘z-o‘zini nazorat qilish darajasiga o‘sib o‘tadi. Biroq, yuqorida ta'kidlangan barcha shart-sharoitlar o‘zaro uzviy bo‘lmasligi sababli har qanday o‘yinning negizi vazifasini o‘tay olmaydi va shunga ko‘ra ma'lum davrgacha o‘yin faoliyati predmetlarga bog‘liq tarzda amalga oshadi. Ruhshunoslarning ta'kidlashicha, o‘yin o‘z o‘zidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit mavjud bo‘lishi kerak:

a) bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi xilma- xil taassurotlarning tarkib topishi;

b) har xil ko‘rinishdagi vosita va tarbiyaviy ta'sir usullarining mavjudligi;

v) bolaning kattalar bilan tez- tez muomala va muloqotga kirishuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta'sir ko‘rsatish uslubi qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu ob'ektiv shart -sharoitning o‘zi milliy xalq harakatli o‘yinlarini tashkil etish, yaratish uchun hali yyetarli emas, buning uchun bola bilan kattalar o‘rtasidagi munosabatni tubdan o‘zgartirish lozim. Aks holda mustaqillik vujudga kelmaydi. Qadimdan ota-bobolarimiz ham bolalarda avvalo qattiqqo‘llik bilan irodani, mustaqillikni tarbiyalab, juda ko‘p maqsadlarni ko‘zda tutishgani ma'lum. Bunda kattalar bolalarga nisbatan talabchanlikni oshirib, bolani mustaqil ravishda harakat qilishga o‘rgatishlari lozim. Shunga o‘xshash tadbirlar bolada mustaqillik va mustaqil faoliyatni tashkil qilish uquvini shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bola asta-sekin kattalarning hayoti va faoliyati dunyosiga kirib boradi, oldin

hamkorlikdagi faoliyatda namoyon bo‘lgan ijobiy his-tuyg‘ular, shijoat va dadillik sari yetaklovchi ruhiy kechinmalar namuna darajasidagi kattalarning ruhiy olamiga ko‘tariladi. Maktab yoshida bolaning o‘zi mustaqil ravishda kattalarning hayoti va faoliyatiga kirish yo‘llarini topa boshlaydi. U keyinchalik kattalar hayoti va faoliyatining barcha sohasida, shaxslararo munosabatlarida qatnashish istagini ko‘rsatadigan bo‘ladi. Shuning uchun xalq milliy harakatli o‘yinlari kattalar bilan bola o‘rtasida yangicha munosabatni vujudga keltiradi va bu munosabatda milliy xususiyatlar: o‘z yurtini qadrlash, hqurmat qilish, kattalarga hurmatda bo‘lish kabi fazilatlar shakllanib, tarkib topib boradi. O‘yin faoliyati o‘zining mazmuni va mohiyati bilan ijtimoiydir. Milliy harakatli o‘yinlar bola mustaqil faoliyatining yorqin namunasi bo‘la oladi, bu jihatdan o‘yinlarning mazmuni orqali u kattalarning hayoti bilan yaqindan tanishadi. O‘yinda ana shu o‘yin sharoiti va predmetli harakatlarning o‘zaro munosabatida asosiy e'tibor predmetlar bilan ko‘pincha harakat qilishga qaratilishini, bunda predmetli o‘yinlar masalan: tosh bilan, chopon, do‘ppi bilan va hokazolar bola harakati uchun yetakchi faoliyat vazifasini o‘tashini ham aytib o‘tish kerak bo‘ladi. Ammo bola o‘yinlarda qandaydir vazifani bajara oladi, buni ham e'tibordan soqit qilmaslik kerak. Masalan, biror predmetni bir ob'ektdan ikkinchisiga yetkazishga belgilangan o‘yinlarda shunday holat ro‘y berishi mumkin. Milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish jarayonida boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak:

1. Bolaning kattalar faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o‘zaro muomalasiga, munosabatiga qiziqishi.

2. Bolalar xalq harakatli o‘yinlari atrofdagi voqelikning eng tashqi ifodali, jo‘shqin his-tuyquli jihatlarini aks ettirishini.

3. Milliy harakatli o‘yinlarda bolaning kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o‘z istagini amaliyotga tadbiq qila olishi.

Bizga ma'lumki, o‘quvchilarning bir guruhi o‘rganish materiallarini tez, ikkinchi guruh nisbatan kechroq, uchinchi guruh esa ancha kech o‘zlashtirib oladilar. Undan tashqari, o‘rganish materiallarini o‘zlashtirishda umumiy jismoniy tayyorgarlik katta ahamiyatga ega. Bolaning jismoniy tayyorgarligiga iqtisodiy sharoitlar: turar joyi, oilaning moddiy ahvoli, bolalar soni, ota-onaning bilimi, dunyoqarashi va ularning ish joyi, unvoni hamda boshqalar ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Olib borilgan kuzatishlar, to‘plangan ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi, ularning dunyoqarashi, nutqi, mashg‘ulotlar jarayonidagi faolligi yuqorida bayon qilingan omillar bilan chambarchas bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qudratov R.H. va boshqa. Sog‘lom avlod tarbiyasida jismoniy tarbiya va sport. (O‘quv uslubiy qo‘llanma). Toshkent 2003. 90 b.

2. Salomov R.S., Ro‘zioxunova M.M. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. T., 1995. 102 b. (Metodik qo‘llanma).

3. Salimov R. M. Milliy harakatli o‘yinlar asosida 5-7 yoshli o‘quvchi-larning jismoniy sifatlarini rivojlantirish samaradorligi. Diss... ped. fan. nom. – T.: 2007. 146 b.

4. Salomov R.S. O‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash jarayonida hrakatli o‘yinlar. // Fan sportga. Toshkent, 2005. № 1. 3-5 b.